

ASRLAR SILSILASIDAGI SEHR...

Ziyoda Saparbayeva Rustamboy qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

“Navoiy shunchalar fozil insonki, uning “fazl gulzori”dan taralayotgan iforidan jon-u dil fayz topadi. Uning qiyofasi shunchalar nuroniyki, birgina nigohi shu’lasidan quyosh va oy nur olib, yarqirab turadi...”

(Husayn Voiz Koshifiy)

Adabiyot manzil-makon tanlamaydi, u otashparast ko‘ngillarga, olovqalb insonlar qalbiga singib boraveradi. San’at turlari xilma-xildir... Adabiyot - so‘z san’ati! Unda inson qalbi va ruhidagi nozik tovlanish so‘z vositasida aks ettiriladi. Unda badiiy so‘zning jozibasi vositasida mo‘jiza yaratiladi. Bir so‘z bilan aytganda, adabiyot - inson ma’naviyati asoslarini tashkil etuvchi ruhiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan san’at turidir. Mening tasavvurimda, adabiyot - insoniyatning ko‘ngil notalarini chertib, dil torlariga ohanglarni singdirib yuboruvchi kuy. U buyuk so‘z me’morlari yasagan, dunyolar bilan bo‘ylasha oluvchi zavol bilmas adabiy obidalardir !!!

Badiiy adabiyot insondan, chin ma’noda, sof his-tuyg‘ular tarannumini, iste’dodni va ayni damda kuchli mahoratni talab etadi. Adabiyot bir katta maydonki, bu maydonda turish har kimga ham nasib qilavermaydi, o‘z so‘ziga ega bo‘lgan ijod ahligina bu maydondan muqim o‘rin oladi... Alalxusus, bu haqda hazrat Navoiy bejiz shunday yozmagan bo‘lsalar kerak:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasig‘a panja urmoq.

Kerak sher oldida sher jangi,

Agar sher o‘lmasa, bore palangi .

Darhaqiqat, o‘z hayotining ma’nosini xalqqa xizmat etishdek buyuk xizmatga baxshida qilgan mutafakkir Alisher Navoiy qudratli ijtimoiy qurol – badiiy so‘z orqali borliq, olam va odam, hayot va umr haqidagi qarashlarini ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida zohiriy va botiniy jilolari bilan san’atkorona ifodalaydi va turkiy adabiyotda katta inqilob yasaydi. Ta’bir joiz bo‘lsa, bu haqda adabiyotshunos olim Vahob Rahmon so‘zlariga quloq tutaylik. Olim o‘zining “Mumtoz so‘z sehri” kitobida Navoiy shaxsini ulug‘lagan holda: ”Agar ilmda mubolag‘a qilish mumkin bo‘lsa, Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotida ijobiy ma’noda inqilob yasadi. Uning birgina dahosi XV asrda turkiy adabiyotni dunyoning juda boy adabiyoti bo‘lgan fors adabiyoti bilan bo‘ylatib qo‘ydi”, - deya e’tirof etadilar.

Navoiyni eslar ekanman, har gal quyidagi bayt meni faxrlanishga, mushohada qilishga undaydi, diqqatimni o‘ziga tortadi :

Turk nazmida chu tortib men alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.
Bu inqilob emasmi? Bu jasorat emasmi?
Bobomiz yana fikrini davom qildiradilar:
Olibmen taxti farmoning'a oson,
Cherik tortmay Xitodin to Xuroson.

Hazrat ushbu satrlari orqali haqli ravishda faxr-u iftixor etadilar.

Qarang, hazrat bobomiz badiiy so'z - nazmning hayotdagi beqiyos o'rni haqida teran falsafiy fikr berar ekan, adabiyot maydonining naqadar buyukligini dalillaydi goyo. Shoir ijodida uning nomini mangulikka daxldor qiluvchi bebaho naqshlar - shohbaytlar har bir o'quvchini o'ziga rom qiladi, diqqatni tortqilaydi, tortqilayveradi...

Hunarni asrabon netgumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdur oxir.

Yoki:

Menga ne yor-u ne oshiq havasdur,
Agar men odam o'lsam, ushbu basdur.

Naqadar teran fikrlar, jonbaxsh so'zlar... Ulardan bo'y olib, qalban ulg'aygandekman go'yo.

Navoiy adabiyot bog'ining bog'boni edi go'yo. Mening nazarimda, u yaratgan betakror timsollar bo'lmish Majnun, Farhodlar ishq siddiqlar ishqidir...

Ma'lumki, dunyoviy adabiyotda ishq-muhabbat yetakchi mavzu bo'lib, Alisher Navoiy ham ishqni bor tarovati bilan tarannum qiladi. Zero, insonni ulug'lash, oliy martabaga yetaklashda ishq-muhabbatning ahamiyati katta. Ishq- muhabbat bor joyda hech qachon yovuzlik, yomonlik bo'lmaydi. Muhabbat dardida yongan qalb go'zalliklar yaratish, faqat yaxshilik, ezgulik qilishga moyil bo'ladi. Men esa bu fikrlarimni Navoiy asarlarini o'qigandan keyingina teranroq angladim. Navoiyga oshno qalblar esa sobitqadam bo'ladilar, albatta. Navoiyni anglash - o'zlikni anglash ekanligiga imon keltirdim, chunki Navoiy asarlari inson ruhini tozalab, uning ma'naviy olamini boyitar ekan.

Go'zal va vafodor sanamlar - Shirin, Layli, Diloromlar millatimizga xos qadriyatlar timsolida kamolga yetgan, har qanday kishini o'ziga rom qiluvchi, o'rnak bo'luvchi timsollar sifatida xayolimni o'g'irleydi. Ular tug'ishgan opalarim kabi qalbimga juda-juda yaqin va yuragimning tub-tubidan joy olganlar... Ular haqiqiy komil insonlar sifatida ko'z oldimda gavdalanadilar. Yana shuni angladimki, Alisher Navoiy yaratgan timsollar ham hayotiy, ham xayoliy bo'lish barobarida shoirning naqadar teran bilim sohibi, yuksak iqtidor egasi ekanligini yuragimning tub-tubidan his qildim va shoirga bo'lgan hurmatim yanada oshdi. Shunday buyuklarning avlodi ekanligimdan faxr tuyg'ulari yanada qanot qoqdi. Jumladan, adabiyot darsida ustozimiz "Layli va Majnun" dostonining kelib chiqish manbayi qadim arablar hayoti bilan bog'liq voqealarga borib taqalishi haqida ayrim arab manbalarining ma'lumot

berishicha, Majnun tarixiy shaxs bo‘lib, Shimoliy Arabistondagi Bani Omir qabilasiga mansub ekanligi haqida go‘zal hikoyalar aytib berdilar. Qiziqishim ortib manbalar orqali uning ismi Qays ibn Mulavvah, Mahdiy ibn Murod, al-Aqra, ba‘zan al-Buhturiy ibn al-Ja‘d tarzida keltirilishini bilib oldim. Ibn Qutaybaning “Kitob ush-she‘r vash -shuaro” asrida bu haqda ma‘lumotlar berilgan.

Ijodkor o‘z asarini yurakdan his qilib yozsagina, u qalblarga yetib boradi. Ushbu dostonning so‘nggi bobi “dard lavhasi”ning yakuni haqida bo‘lib shoir bunda hazin ishq iztiroblari ila shunday satrlar bitadi:

So‘ngin nechakim uzottim oxir,

Yig‘lay-yig‘lay tugattim oxir ...

Adabiyotni sohir saltanat desak, beixtiyor Navoiyni ushbu saltanatning - so‘z saltanatining sultoni, degan bo‘lar edik. So‘z vositasida inson kechinmalariga, sezimlariga ta‘sir qilish oson ish emas, albatta. Insoniyat so‘z orqali yaralgan va hamono so‘z bilan tirik, so‘z bilan ulug‘dir.

Rivoyat qilishlaricha, Alloh taolo Luqmoni hakimdan “Payg‘ambarlik beraymi yoki hikmat”, - deb so‘raganida, u hikmatni tanlagan ekan. Shuning uchun Sharqda ma‘rifiy-ta‘limiy adabiyot rivojlangan. Alisher Navoiy asarlari ham Sharq musulmon adabiyotining ajralmas bo‘lagi sifatida bashariyat kamoloti rivojida muhim o‘rin tutadi.

Shah yonin farzin kibi kajlar maqom etmish, ne tong,

Rostravlar arsadin har tutsalar ruxdek qiroq, - deydi Navoiy.

Ya‘ni shohning yonini farzin kabi egri yuruvchilar egallab olgani sababli, ruxdek to‘g‘ri yuruvchilar maydon(shatranj taxtasi)ning burchagidan o‘rin olsalar, ne ajab, deya o‘z ijtimoiy qarashlarini chiroyli tarzda ifodalaydi hazrat. Bu hikmat davlat rahbari – shohning yonini egri yuruvchi amaldorlar egallab olgani haqida bo‘lib, ular oqil va hakim insonlarga halal berishi ta‘kidlanyapti. Bu holat shoir tomonidan go‘zal va betakror o‘xshatish - shatranj taxtasi va undagi donalar orqali bayon qilib berilgan. Muhammad ibn Xovandshoh Mirxondning “Ravzat us-safo” asarida Navoiy hayoti va faoliyatiga doir qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan. Mirxond Navoiyning ibrat yo‘lini bayon qilar ekan, uning yuksak shaxsiyat egasi sifatida millat va xalq farovonligi yo‘lidagi sa‘y-harakatlari, davlat arbobi sifatidagi faoliyati haqida so‘z yuritar ekan, uning mansab va hukmfarmolikdan yiroq, nihoyatda kamtar, xokisor ekanligiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Hikoyatda yozilishicha, Navoiy Husayn Boyqaro saroyida bir muddat muhrdorlik lavozimida faoliyat yuritganidan so‘ng bu mansabni tark etish borasida hukmdorga iltimos qilib, bu lavozimga amir Ahmad Suhayliyni tayinlashni so‘raydi. Podshoh uning iltimosini qabul qiladi, lekin Navoiyni amir qilib tayinlaydi. Husayn Boyqaroning istagi shu ediki, Amir Navoiy farmonga boshqa amirlardan yuqorida muhr bossin. Ammo voqealar boshqacha tus oladi: Navoiyning qo‘liga muhr bosishi uchun nishonni berganlarida, nihoyatda xokisor va kamtar bo‘lganligidan nishonning shunday joyiga muhr bosadiki, undan pastroqda muhr bosishga joy qolmaydi ...

Hazrat Navoiyning asarlaridagi yana bir muhim mavzu – do‘stlik, birodarlik, mehr-oqibat bo‘lib, shoir shohbaytlarining birida shunday yozgan edilar:

Olam ahli bilingizkim — ish emas dushmanlig‘,

Yor o‘lung bir-biringizgaki, erur yorlig‘ ish.

Asrlar qa‘ridan yangrayotgan, yurak tubini titratib chiqayotgan bu satrlar zamonning hayqirig‘idek go‘yo. Bugungi kunda ko‘plab davlatlardagi urushlar, Qozog‘istondagi xalq qo‘zg‘oloni... Bular shunchaki o‘z-o‘zidan paydo bo‘layotgan urushlar emas-ku, axir. Bu, eng avvalo, xalqda birdamlik, do‘st-u yorlik yo‘qligidan dalolat emasmi? Ilmsizlik, jaholat insonlarni o‘z domiga tortib ketayotganining isboti emasmi bu? Albatta, har kim qachonki izlanishdan, o‘qib-o‘rganishdan to‘xtasa, jaholatga yuz tutadi. Shunday ekan, biz Navoiy asarlarini o‘qib-o‘rganishimiz, Navoiy asarlarini anglashimiz, undagi insonparvarlik, komil inson g‘oyalarini o‘zimizda shakllantira olishimiz kerak.

Navoiyni anglash uchun dunyoga Navoiona ko‘z bilan qarash va uni butun vujud ila, ko‘ngil ila his qilish kerak, deb o‘ylayman. Boisi, qachonki, ruhiyat birlashsa, uni ko‘ngil bilan his qilish mumkin.

Menimcha, yoshlar orasida Navoiyni anglash baxti hozirgi davrdagiday dolzarb pallaga kirmagan bo‘lsa, ne ajab... Ammo shuni bilamanki, Navoiy asarlari zamon, makon bilmaydi, xalqimizning bebaho dur-u javohirlari hisoblangan bu nodir asarlar Navoiy bobomiz orzu qilgan avlod, jumladan, mening ham kamolotimda muhim omil bo‘lib qolishiga shubha yo‘q..

Navoiy asarlari hamisha barhayot: ular mangulikka daxldor bo‘lgan asarlardir. Navoiy adabiyot shaydolarining ko‘nglida tillardan dillarga ko‘chib, dillardan ruhiyatga ko‘chib, mangu yashayveradi!